

SMTIda Shveytsariyaning "Peace Nexus" fondi delegatsiyasi bilan uchrashuv bo'lib o'tdi



Joriy yilning 8-aprel kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Strategik va mintaqalararo tadqiqotlar institutida "Peace Nexus" jamg'armasi vakillari - direktor o'rinosari Mads Frilander va Markaziy Osyo dasturlari bo'yicha bosh mutaxassis Nazgul Aksariyeva bilan uchrashuv bo'lib o'tdi.

Mehmonlar Markaziy Osiyodagi chegara masalalarini hal etishda erishilgan yutuqlarni yuqori baholadilar. Xususan, Xo'jandda o'tkazilgan uch tomonlama sammit hamda uning yakunida O'zbekiston, Tojikiston va Qirg'iziston davlat chegaralarining tutash nuqtasi to'g'risidagi shartnoma va Abadiy do'stlik deklaratsiyasining imzolanishi tomonlarning davlat chegaralarini tinchlik, barqarorlik va hamkorlikda rivojlanish hududiga aylantirish istagidan dalolat berishi ta'kidlandi.

Shu nuqtayi nazardan, M.Frilander mintaqaviy hamkorlikni yo'lga qo'yish bo'yicha Markaziy Osiyoning muvaffaqiyatli tajribasi boshqa mamlakatlar va mintaqalar uchun ko'p tomonlama hamkorlikning namunali modeli bo'lib xizmat qilishi mumkinligini qayd etdi.

Tomonlar SMTI va "Peace Nexus" jamg'armasi o'rtasidagi hamkorlikni yo'lga qo'yish masalalarini ham atroficha muhokama qildilar. Farg'ona vodiysida tinchlik va taraqqiyotni ta'minlash sohasida qo'shma tadbirlarni tashkil etishdan ikki tomon ham manfaatdor ekani ta'kidlandi.

Peace Nexus jamg'armasi - 2009-yilda tashkil etilgan Shveytsariya notijorat tashkiloti bo'lib, dunyoning to'rt mintaqasida: G'arbiy Bolqon, G'arbiy Afrika, Janubi-Sharqiy Osyo va Markaziy Osiyoda faoliyat olib boradi. Jamg'arma tinchlik o'rnatishning turli ishtirokchilariga ekspert ko'magini taqdim etish orqali barqaror tinchlikni qaror toptirishga hissa qo'shadi. BMT bilan faol hamkorlik olib boradi.